

*Kamoliddinova M.N.*

*TDSHU Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti 2-kurs talabasi +998881421806*

*manoka5015@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: ffn.dots. Shorasulova Shirin*

## **HARAKAT NOMINING ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada harakat nomi haqida qisman ma’lumot beriladi va ularning arab va o‘zbek tilida grammatik va leksik jihatdan o‘xshash va farqli jihatlari qisqacha yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** fe’lning vazifa shakllari, masdar, otlashish hodisasi, bob fe’llari, fe’l vaznlari.

**Аннотация:** В данной статье частично рассматриваются деепричастия и кратко освещаются их грамматические и лексические сходства и различия в арабском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** функциональные формы глагола, масдар, номинализация, форма глаголов, шаблоны глаголов.

**Annotation:** This article provides partial information about action nouns and briefly highlights their grammatical and lexical similarities and differences in Arabic and Uzbek languages.

**Keywords:** functional forms of the verb, verbal nouns, infinitive, nominalization, verb forms, verb patterns.

O‘zbek va arab tillari dunyodagi yirik tillar oilalariga mansub bo‘lib, har biri o‘z tarixiy va lingvistik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga kiradi va o‘z so‘z yasaliş va grammatik qonuniyatlariga ega. Bu til agglutinatív xususiyatga ega bo‘lib, so‘zlarga turli qo‘shimchalar qo‘shish orqali ma’no va grammatik shakllar hosil qilinadi. O‘zbek tilida so‘zlarning tarkibi sodda va tuzilishi aniq bo‘lib, so‘zlarning turli grammatik shakllari qo‘shimchalar yordamida yasaladi.

Arab tili esa somiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, uning tuzilishi va so‘z yasaliş boshqa tillarga qaraganda o‘ziga xosdir. Arab tilida so‘zlar asosan uchta undoshdan iborat o‘zakka asoslanib yasaladi va bu o‘zaklar yordamida turli grammatik shakllar hosil qilinadi. Arab tilining morfologik tizimi murakkab va rang-barang bo‘lib, so‘zlarning shakli va ma’nosi o‘zgarishi o‘zak va vaznlar yordamida amalga oshiriladi.

Bu ikki tilning lingvistik xususiyatlari, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va arab tillarining grammatik tuzilishi va so‘z yasaliş usullarini chuqurroq tahlil qilish, tilshunoslik sohasida yangi bilimlar olishga yordam beradi.

**Harakat nomi** — fe’lning ish-harakat nominigina bildiruvchi, zamon, shaxs-son, mayl kabi ma’nolarga ega bo‘lmaydigan funksional shakli. Fe’lning bu shakli – (i)sh, – (u)v, –moq qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘ladi. Masalan: o‘qish, yozuv, aytmoq kabi.

Harakat nomi shakllari ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini va ular bilan bog‘liq ma’nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning o‘zini ataydi, ya’ni harakat-holatning atamasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ular otga xos grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qila oladi, gapda otning sintaktik vazifalarini bajaradi.

Shuningdek, – moq, –v (–uv) qo‘shimchalarida ko‘tarinkilik va badiiylik –sh (–ish) qo‘shimchalaridan ko‘ra kuchliroqdir. –moq qo‘shimchasi bilan yasalgan harakat nomi fe’lga yaqin turadi, –sh,–ish bilan

yasalgan harakat nomi otga yaqin turadi, shuning uchun ularni doim almashtirib qo'llab bo'lmaydi. Masalan:

Qurilish boshlandi gapida – moq qo'shimchasini ishlatib bo'lmaydi, o'qish so'zida esa – moq qo'shimchasini qo'llasa bo'ladi. Harakat nomlarining bo'lishsiz shakli quyidagicha yasaladi: bormoq – bormaslik, o'qish – o'qimaslik, keluv – kelmaslik. Harakat nomlari tuslanmaydi, otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi. Gapda ega, ot – kesim, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo'lib keladi:

- Chuqur bilim olish maqsadimdir.(ega)
- Bundan maqsad sodda qilib tushuntirish. (kesim)
- O'qishni boshladik. (to'ldiruvchi)
- Suzishning turli usullari bor. (qaratqich aniqlovchi)

**Harakat nomi** arab tilida masdar ( مَصْدَرٌ ) deyiladi va fe'ldagi ma'noni shaxs va sondan, zamondan va jinsdan xoli holda ifodalaydi. Harakat nomi ham arab tilida ma'lum vaznga ega:

دَخَلَ (chiqmoq) — دَخُولٌ (chiqish) — فُعُولٌ  
 أَكَلَ (yemoq) — أَكْلٌ (yeyish) — فَعْلٌ  
 شَرِبَ (ichmoq) — شَرْبٌ (ichish) — فُعْلٌ

Har bir bob fe'lining o'ziga xos masdar vaznlari mavjud. Bular ichida eng murakkabi I bob fe'lidir. Negaki uch undoshli fe'llarning I bobi masdarlarining 50ga yaqin vazni ma'lum. Ammo qaysi fe'lga qaysi vazndagi masdar to'g'ri kelishini belgilaydigan aniq qoidalar yo'q. Bundan tashqari, arab tilida birdan ortiq ma'noga ega fe'llar ko'p. Ularning har bir ma'nosiga xos masdarlari bo'lishi mumkin. Masalan :

- تَعَسَّ 1) baxtsiz bo'lmoq – تَعَسَّنَ  
 2) baxtsiz qilmoq – تَعَسَّنَ
- سَمَّرَ 1) bug'doyrang bo'lmoq – سُمَّرَةٌ  
 2) kechqurun suhbatlashib o'tirmoq – سُمُورٌ

Uch undoshli fe'llarning I bobidan yana مَفْعَلٌ, مَفْعِلٌ, مَفْعَلَةٌ vaznida “ مَصْدَرٌ مِيمِي – mimli masdar ” lar yasalishi mumkin. Shu sababli lug'atlarda I bob fe'li yonida uning masdari ham ko'rsatiladi. Boshqa fe'llarning masdarlari esa quyidagi vaznlarda yasaladi:

### I. Uch undoshli fe'llar

Bob	Vazn	Misol
II	تَفْعِيلٌ تَفْعِلَةٌ	تَعْلِيمٌ - o'qitish تَجْرِبَةٌ - sinash
III	فِعَالٌ مُفَاعَلَةٌ	كِفَاحٌ - kurashish مُحَاكَمَةٌ - muhokama qilish

IV	إِفْعَالٌ	إِكْرَامٌ - izzat-ikrom
V	تَفْعُلٌ	تَبْسُؤٌ - jilmayish
VI	تَفَاعُلٌ	تَجَاهُلٌ - o`zini bilmaganga solish
VII	اِنْفِعَالٌ	اِنْقِلَابٌ - to`ntarilish, ag`darilish
VIII	اِفْتِعَالٌ	اِعْتِبَارٌ - e`tiborga olish
IX	اِفْعِلَالٌ	اِسْوَدَادٌ - qorayish
X	اِسْتِفْعَالٌ	اِسْتِقْبَالٌ - kutib olish

## II. To`rt undoshli fe`llar

I	فَعْلَلَةٌ	تَرْجِمَةٌ - tarjima qilish
II	تَفَعُّلٌ	تَرْحُلٌ - sirpanish

Masdarlar fe`ldan yasalgani bilan grammatik xususiyatlariga ko`ra otga ko`proq o`xshab ketadi. U tanvin qo`shimchasini qabul qiladi, kelishiklarda turlanadi. Shuningdek, gapda ot so`z turkumi kabi har qanday gap bo`lagi vazifasida kelishi mumkin. Masalan:

حُبُّ الْوَطَنِ مِنَ الْإِيمَانِ – Vatanni sevish imondandir. (ega, bosh kelishik)

يُحِبُّ عُثْمَانُ قِرَاءَةَ الْكُتُبِ الْعِلْمِيَّةِ. – Usmon ilmiy kitoblar o`qishni sevadi. (to`ldiruvchi, tushum kelishigi)

أَهْمُ شَيْءٍ لِلصِّحَّةِ هُوَ مُمَارَسَةُ الرِّيَاضَةِ. – Sog`liq uchun eng muhim narsa sport bilan shug`ullanishdir. (kesim, bosh kelishik)

Shu bilan birga masdarlarning fe`llik xususiyati ham yo`q emas. Masdar hosil bo`lgan fe`l qaysi predlogni talab qilsa, masdar ham to`ldiruvchi yoki holni o`sha predlog yordamida boshqaradi. Masalan :

- أَحْمَدُ يَبْحَثُ عَنِ عَمَلٍ جَدِيدٍ Ahmad yangi ish izlayapti.
- الْبَحْثُ عَنِ عَمَلٍ جَدِيدٍ Yangi ish izlash.
- تَعَوَّدْتُ عَلَى مُمَارَسَةِ الرِّيَاضَةِ Sport bilan shug`ullanishga odatlanganman.
- التَّعَوُّدُ عَلَى مُمَارَسَةِ الرِّيَاضَةِ Sport bilan shug`ullanishga odatlanish.

Masdarlar ish- harakatni bajaruvchi subyekt ( الْفَاعِلُ ) va obyekt ( الْمَفْعُولُ ) bilan izofa birikmasi hosil qiladi:

قَرَأَ مَحْمُودٌ – Mahmud o`qidi ; قِرَاءَةُ مَحْمُودٍ Mahmudning o`qishi

قَرَأَ الْكِتَابَ – Kitobni o`qidi ; قِرَاءَةُ الْكِتَابِ Kitobni o`qish

Masdar – “nima qilish? “so`rog`iga javob bo`ladigan harakat nomi odatda birlik sonda ishlatiladi:

تَعَلُّمُهُمُ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ – Arab tilini o‘rganishlari ;  
دِفَاعَنَا عَنْ وَطَنِنَا – Vatanimizni himoya qilishimiz...

Masdarlar « nima? » so‘rog‘iga javob bo‘ladigan ot ma‘nosida ishlatilishi, ya‘ni otlashgan bo‘lishi mumkin:

Masdar	Harakat nomi	Ot
ضَرَبٌ	urish	zarba
اِبْتِسَامٌ	jilmayish	tabassum
إِعْلَانٌ	bildirish	e‘lon
سُؤَالٌ	so‘rash	savol

Bular otga aylanganidan keyin otlar qanday xususiyatga ega bo‘lsa, ular ham shunday xususiyatlarni qabul qiladi – sonda o‘zgaradi:

إِعْلَانٌ - bitta e‘lon ;      إِعْلَانَانٌ - ikkita e‘lon;      إِعْلَانَاتٌ - e‘lonlar.  
سُؤَالٌ - savol;      أَسْئَلَةٌ - savollar.

Xulosa qilib aytganda, harakat nomining o‘zbek va arab tillaridagi xususiyatlari mazkur tillarning lingvistik tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilida harakat nomlari agglutinativ tuzilishga asoslanib, ko‘pincha qo‘shimchalar yordamida shakllanadi. Arab tilida esa flektiv (o‘zak o‘zgarishiga asoslangan) tizimga tayanib, turli vaznlar yordamida shakllanadi. Ushbu maqolada taqdim etilgan tahlillar har ikkala tilning harakat nomlari tizimini qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganish imkonini beradi va bu tillarning o‘ziga xos morfologik va leksik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu kabi qiyosiy tahlillar, o‘z navbatida, tilshunoslik va grammatik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdujabborov.A. - M. Arab tili.Toshkent – 2011
2. Anorbekova.A , Mirzayeva.Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2011
3. Ibrohimov.N.Yusupov. – M. Arab tili grammatikasi. Toshkent – 1997
4. Ilhomjon Madrahimov.Harakat nomi. Qomus. Onlayn ensiklopediya.  
<https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/harakat-nomi-uz/>